

Xalq so‘zi

O‘zbekiston — kelajagi buyuk davlat

2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan ● WWW.XS.UZ ● E-mail: Info@xs.uz ● 2026-yil 30-avgust, № 179 (9350) Yakshanba

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

HINDISTON BOSH VAZIRI O‘ZBEKISTONGA KELDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Hindiston Respublikasi Bosh vaziri Narendra Modi 29-avgust kuni davlat tashrifi bilan mamlakatimizga keldi.



“Toshkent-Humo” xalqaro aeroportida Hindiston Bosh vazirini davlatimiz rahbari kutib oldi.

Oliy martabali mehmon sharafiga ikki mamlakat davlat bayroqlari ko‘tarildi, faxriy qorovul saf tortdi.

O‘zbekiston bilan Hindiston o‘rtasidagi aloqalar yuqori darajadagi siyosiy muloqot, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, transport va madaniy-gumanitar sohalardagi hamkorlikning izchil kengayib borayotgani bilan ajralib turadi. Ikki tomonlama munosabatlar yildan-yilga yangi mazmun bilan boyib, strategik sheriklik tamoyillari asosida barqaror rivojlanmoqda.

Hindiston O‘zbekiston mustaqilligini 1991-yil 26-dekabrda rasman tan olgan. Ikki davlat o‘rtasida diplomatik munosabatlar 1992-yil 18-martda o‘rnatilgan.

Shu kuni Hindiston Respublikasi Bosh vaziri Narendra Modi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev hamrohligida “Yangi O‘zbekiston” bog‘iga tashrif buyurdi.

An’anaga ko‘ra, oliy martabali mehmon Mustaqillik monumenti poyiga gul qo‘ydi.

Mamlakatimizning o‘tmishi va porloq kelajagi o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ifodalovchi Mustaqillik monumenti yurtimizda yuksak ma’naviyat hamda ezgu qadriyatlar qaror topganidan dalolat beradi. U Vatanimizning teran tarixiy ildizlari va ulkan taraqqiyot salohiyatini yaqqol namoyon etuvchi yuksak timsoldir.

Majmuada xalqimizning ko‘p asrlik tarixi, buyuk allomalarimiz va jahongir ajdodlarimizning siymolari, yurtimiz taraqqiyotidagi muhim voqealar o‘z ifodasini topgan. Monument cho‘qqisidagi Humo qushi ozodlik va ezgulik g‘oyalarini, xalqimizning oliyjanob orzu-intilishlarini ifoda etadi.

Majmua bilan qisqacha tanishuv davomida ushbu me’moriy ansamblning mazmuni va o‘ziga xos xususiyatlari haqida ma’lumot berildi.

Tashrifning asosiy tadbirlari 30-avgust kuni bo‘lib o‘tadi.

Bo‘lajak muzokaralar kun tartibidan O‘zbekiston – Hindiston strategik sheriklik munosabatlarini yanada rivojlantirish va mustahkamlash hamda ko‘p qirrali hamkorlikni kengaytirish masalalari o‘rin olgan.

Tizimli siyosiy muloqot va madaniy-gumanitar almashinuvni kengaytirish, savdo, energetika, kimyo, geologiya, sog‘liqni saqlash, farmatsevtika, qishloq xo‘jaligi, mashinasozlik va iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida aniq dasturlar va kooperatsiya loyihalarini ilgari surishga ustuvor e’tibor qaratiladi.

Xalqaro siyosat va mintaqaviy kun tartibining dolzarb masalalari hamda ko‘p tomonlama tuzilmalar doirasidagi hamkorlik yuzasidan fikr almashiladi.

Uchrashuv yakunida ikki tomonlama hujjatlarning salmoqli to‘plamini imzolash ko‘zda tutilgan.

O‘zA.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

Xalqaro anjuman

GLOBAL MULOQOT VA HAMKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA MUHIM QADAM

Shu yil 4 – 6-sentabr kunlari Samarqand shahrida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati hamda Parlamentlararo Ittifoq hamkorligida “Murakkab davrda inson huquqlari, adolat va inson qadr-qimmatini tiklash yo‘lida” mavzuida Yosh parlament a’zolarining XII global konferensiyasi tashkil qilinadi.

Xalqaro anjuman O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan yoshlarning jamiyat va davlat hayotidagi faol ishtirokini kengaytirish, ularning parlament faoliyatidagi rolini kuchaytirish, yosh avlod vakillari o‘rtasida global muloqot va hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan muhim tashabbuslarning amaliy ifodasi hisoblanadi.

Unda 183 mamlakat, 15 ta xalqaro tashkilot vakillari hamda 50 ga yaqin doimiy kuzatuvchilardan iborat 300 ga yaqin ishtirokchilar qatnashishi kutilmoqda. Ularning orasida yosh parlament a’zolari, parlament rahbarlari, xalqaro tashkilotlar hamda fuqarolik jamiyati institutlari vakillari bor. Anjumanda yosh parlament a’zolari zamonaviy dunyoda duch kelayotgan dolzarb muammolarni muhokama qiladi, adolat tamoyillarini mustahkamlash, tinchlik va osoyishtalikni ta’minlash, shuningdek, barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda yoshlarning rolini oshirish masalalari yuzasidan fikr va tajriba almashadi. Shuningdek, konferensiya doirasida Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda parlamentlar-aro hamkorlikka bag‘ishlangan III global forum ham tashkil etiladi.

Bugungi kunda dunyoda jadal o‘zgarishlar, yangi xavf va tahdidlar kuzatilayotgan bir sharoitda yoshlarning qaror qabul qilish jarayonlaridagi ishtirokini ta’minlash, salohiyati va tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash tobora muhim ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan, mazkur konferensiya yosh parlament a’zolari uchun nafaqat tajriba va fikr almashish, balki aniq tashabbuslarni ilgari surish hamda amaliy hamkorlikni yo‘lga qo‘yish uchun asosiy xalqaro maydon hisoblanadi.

Samarqand shahrida o‘tkaziladigan ushbu nufuzli xalqaro anjuman O‘zbekistonning parlamentlararo muloqotni rivojlantirish, yoshlar diplomatiyasini qo‘llab-quvvatlash va global hamkorlikni mustahkamlash borasidagi faol pozitsiyasini namoyon etadi.

“Xalq so‘zi”.

Mustaqilligimizning 35 yilligiga

OZOD YURTDA BAXTIYOR USTOZLARMIZ

Inson o‘tgan hayot yo‘liga nazar tashlar ekan, shu kungacha nimalarga erishgani va nimalarga ulgurmagani xususida o‘ylashi muqarrar. Jonajon O‘zbekistonimiz davlat mustaqilligining 35 yilligi arafasida ta’lim sohasida qanday natijalarga erishganligimizni oddiy bir pedagog nazari bilan muxtasar sarhisob qilish va albatta, ushbu yutuqlarni mustaqillikdan oldingi davr bilan taqqoslashni lozim topdim.

Mustaqillik e’lon qilinishidan chamasi ikki-uch yil oldin, endigina ish faoliyatimni boshlagan kezlar shahrimizda bittagina yangi maktab qurildi. Lekin bu maktab yangi bo‘lsa ham, uning moddiy-texnika bazasi maqtanarli ahvolda emas, sharoitlari haminqadar edi. Yodimda qolgani ko‘p narsalarni o‘z kuchimiz bilan qilishga majbur bo‘lgandik.

Bugungi maktablarning – yangilarining ham, eskilarining ham suratiyu siyrati o‘zgacha: binolar ham, moddiy-texnik baza ham zamon talabiga mos. Chunki ularning qurilishi, zarur jihozlar bilan ta’minlanishi uchun davlatimiz zarur mablag‘ni ayamayapti. O‘tgan yili Sirdaryo viloyatida 47 ta maktab, 46 ta bolalar bog‘chasi to‘liq ta’mirlandi, yangilari qurildi. Joriy yilda ham ta’mirlash va qurilish ishlari olib borilayotgan maktab va bog‘chalar soni bundan kam emas.

Bog‘chalar haqida gap ketganda, bir achinarli holat ko‘ngilni xijil qiladi. Negaki, mustaqillik arafasi va uning ilk yillarida minglab bog‘chalar yopilib, aksariyatining binolari sotib yuborilgandi. Bu esa bolalarning bog‘chalarga qamrovi 7 foizgacha tushib ketishiga sabab bo‘ldi. Bugun Prezidentimizning ta’lim yo‘nalishidagi uzoqni o‘ylab amalga oshirayotgan islohotlari bois bog‘chalar soni ko‘payib, qamrovi kengaymoqda. O‘tgan o‘n yil davomida bolalar uchun bilimlar poydevori bo‘lgan minglab maktabgacha ta’lim tashkilotlari bunyod etildi va qisqa vaqt ichida qamrov qariyb 80 foizga yetdi.

Qirq yillik pedagogik faoliyatimga tayanib aytsak, mamlakatimiz ta’lim tizimida o‘tgan davrda yutuqlar bilan birga, ba’zi muammolar ham bo‘ldi. Xususan, mustaqillikka erishgan ilk yillar maoshlar pastligi tufayli qancha bilimli, ayniqsa, oilasining asosiy boquvchisi bo‘lgan erkak muallimlar maktabni tark etdi. O‘shanda bu qanchalar og‘ir oqibatlarga olib kelishini biz, pedagoglar yurakdan his qilardik. Ya’ni moddiyat ustun kelib, ta’lim ikkinchi darajaga tushib ketgan yillarning guvohi bo‘ldik.

So‘nggi o‘n yilda esa ta’lim taraqqiyoti uchun katta imkoniyatlar yaratildi. Eng birinchi e’tibor muallimning mehnatini moddiy va ma’naviy tomondan qadrlashga qaratildi. Uning malakasi va mahorati rag‘bat topdi.

➡2

Xalq irodasi – qonun – natijadorlik:

35 YILLIK PARLAMENTARIZM SABOQLARI

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan boshlangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot yo‘lining ulug‘vorligi, bunyodkorlik ruhi va xalqimiz erishayotgan yutuqlardagi beqiyos ahamiyatini yillar o‘tgan sari yanada teranroq anglamoqdamiz. Yangi O‘zbekiston falsafasi nafaqat keng ko‘lamli islohotlarning asosi, balki milliy taraqqiyotning yangi tafakkurini shakllantirgan, bugungi erishilgan marralarga yetaklagan xalqchil strategiya ekanini vaqtning o‘zi isbotlamoqda.

Mustaqilligimizning 35 yilligi “Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yarataylik!” degan ezgu g‘oya asosida nishonlanayotgani ham bejiz emas. Bu g‘oya Yangi O‘zbekiston taraqqiyot falsafasining mazmun-mohiyatini, xalq va davlatning yagona maqsad sari intilishini o‘zida mujassam etgan.

Prezidentimiz mustaqillikning 35 yilligiga bag‘ishlangan nutqida ta’kidlaganidek, o‘ttiz besh yillik mustaqil taraqqiyot yo‘li bizga bir haqiqatni o‘rgatdi: xalq va davlat yagona maqsad yo‘lida birlashib, astoydil harakat qilsa, zabt etib bo‘lmaydigan marraning o‘zi yo‘q.

Kimki zamondan ilgarilab fikrlay olsa, kelajakni yaratadi, kimki kechagi andozalar bilan yashasa, tarix izidan ergashishga mahkum bo‘ladi. Prezidentimiz Yangi O‘zbekiston g‘oyasi orqali taraqqiyotning eng muhim qonuniyatini amalda namoyon etdi: buyuk o‘zgarishlar, avvalo, tafakkurdan boshlanadi.

Bugun mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar ana shu yangicha tafakkurning amaliy ifodasidir. Davlat va jamiyat boshqaruvida ochiqlik, hisobdorlik, qonun ustuvorligi, inson qadri va hech kimni muammolari bilan yolg‘iz qoldirmaslik tamoyillari davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi.

Mustaqil davlatchilikning huquqiy poydevori

Bugun milliy parlamentarizm tarixiga faqat qonunlar soni yoki parlamentning tashkiliy tuzilishi nuqtai nazaridan qarab bo‘lmaydi. Uning haqiqiy mazmuni – xalq irodasining davlat qarorlariga aylanish mexanizmi qanday o‘zgarganida namoyon bo‘ladi.

➡3

Agrar sohadagi islohotlar:

OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI VA MILLIY SUVERENITET POYDEVORI

Vatanimiz mustaqilligining 35 yillik qutlug‘ ayyomini yuksak ko‘tarinkilik va salmoqli yutuqlar bilan kutib olyapmiz. Ortda qolgan shonli yo‘l – bu nafaqat davlatchilik asoslarining mustahkamlanishi, balki xalqimizning farovon va munosib hayot kechirishini ta’minlash yo‘lidagi buyuk transformatsiya davri bo‘ldi, desak, ayni haqiqat.

Tahlil

Har qanday mustaqil davlatning barqarorligi hamda suvereniteti, avvalo, uning oziq-ovqat xavfsizligi bilan o‘lchanadi. Zero, o‘z aholisini sifatli, arzon va yetarli miqdordagi oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlay olmagan mamlakatning tashqi xatarlarga qarshi chidamliligi haqida gapirish mushkul. Shu nuqtai nazardan, so‘nggi yillarda yurtimizda agrar sohada amalga oshirilgan tub islohotlar mamlakatimiz oziq-ovqat mustaqilligini ta’minlashning mustahkam kafolatiga aylandi.

➡4

O‘zbekiston sayohat uchun dunyoning eng yaxshi yo‘nalishlari beshligida!

Nufuzli xalqaro sayyohlik platformasi – “Much Better Adventures” e’lon qilgan “Solo Travel Index 2026” reytingida O‘zbekiston mustaqil sayohatlar uchun dunyoning eng yaxshi yo‘nalishlari beshligidan joy oldi.

E’tirof



Reytingni shakllantirishda sayyohlarning taassurotlari, “Global Peace Index”, viza olish qulayligi, ovqatlanish xarajatlari, rang-baranglik hamda piyoda sayohat yo‘nalishlarining mavjudligi kabi mezonlar hisobga olingan.


Platforma O‘zbekistonning Buyuk Ipak yo‘li merosi, boy tarixiy-madaniy salohiyati, tabiiy landshaftlari va rivojlangan turizm infratuzilmasini asosiy ustunliklar sifatida qayd etgan. Xususan, Nurota tog‘larida qadimiy so‘qmoqlar bo‘ylab sayohat qilish, mahalliy qishloqlar hayoti bilan tanishish, an’anaviy o‘tovlarda tunash hamda Qizilqum orqali Aydarko‘lga borish imkoniyatlari alohida ko‘rsatilgan.

Shuningdek, Samarqand, Buxoro, Xiva va boshqa tarixiy shaharlar O‘zbekistonning Buyuk Ipak yo‘li chorrahasidagi beqiyos tarixiy va madaniy merosini namoyon qiluvchi muhim sayyohlik maskanlari sifatida qayd etilgan.

Mazkur xalqaro e’tirof O‘zbekistonning jahon turizm xaritasidagi mavqei mustahkamlanib, mamlakatning tarixiy meros, tabiat va zamonaviy sayyohlik imkoniyatlarini uyg‘unlashtirgan istiqbolli yo‘nalish sifatidagi nufuzi tobora yuksalib borayotganini yaqqol namoyon etadi.

“Xalq so‘zi”.

OZOD YURTDA BAXTIYOR USTOZLARMIZ



1 Ayni omillar tufayli sohaga yangicha ta’lim berish salohiyatiga ega, chuqur bilimli pedagog kadrlarning yangi avlodi kirib keldi. E’tiborlisi, erkak o‘qituvchilar yana maktabga qaytdi. Chunki bugun nafaqat bizniki kabi ixtisoslashtirilgan maktablarning, balki oddiy umumta’lim maktablarining o‘qituvchilari ham 10 million so‘m va undan yuqori miqdorida maosh olish imkoniyatiga ega bo‘ldi.

Prezidentimiz tashabbusi bilan yaratilgan o‘ziga xos, unikal ta’lim tizimi esa bugun ko‘plab mamlakatlar uchun namuna bo‘lmoqda. Maktabgacha ta’limdan tortib, oliygoh va ilmiy darajaga erishgunga qadar bo‘lgan tizimda o‘zaro bog‘liqlikni ta’minlash – bu natijadorlikka qaratilgan samarali islohot. Shuningdek, iqtidorli bolalarga yuqori darajada ta’lim berish, ularning iste’dodlarini qo‘llab-quvvatlash, rivojlantirish va yuksaltirish, dunyo miqyosida malakali kadrlarni yetishtirish maqsadida tashkil etilgan Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarning samarali natijalariga, o‘quvchilar erishayotgan yutuqlarga bugun ko‘plab mamlakatlar havas bilan qarayotgani sir emas.

Masalan, bizning Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ijod maktabiga xorijdan kasbdoshlarimiz tez-tez kelib turishadi va ular ham iste’dodli o‘quvchilar uchun yaratilgan imkoniyatlarni e’tirof etayotir.

Hozirda ijod maktablari minglab o‘g‘il-qizlar uchun bir vaqtning o‘zida ta’lim olish hamda o‘zlari qiziqqan ijodiy yo‘nalish bo‘yicha mahoratlarini oshirish uchun imkoniyatlar maskani bo‘lib xizmat qilmoqda. O‘nlab o‘quvchilarimiz adabiyot, teatr san’ati, jurnalistika va boshqa ijodiy yo‘nalishlarda katta yutuqlarga erishmoqda.

Ularning kitoblari chop etilishi, turli tanlov va olimpiadalarda muvaffaqiyatli ishtiroki uchun rag‘batlantirilishi yosh ijodkorlarning o‘z ustida ishlashi va intilishiga qanot bag‘ishlayotir. Misol uchun, o‘quvchilik davridan teran she’rlari bilan ustozlar e’tiborini qozongan, bu yil adabiyot yo‘nalishi bo‘yicha Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sohibi bo‘lgan hamda imtiyozli ravishda O‘zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti talabaligiga qabul qilingan Zulhayo Mingboyeva ana shulardan biri. Yoki maktabimizning drama to‘garagi a’zolari “Teatr – ibratxona” shiori ostida o‘tkazilgan tanlovning respublika bosqichida ketma-ket ikkinchi yil birinchi o‘rinni egalladi. Joriy yilda ular g‘olib sifatida Xitoy davlatida bo‘lib, tomoshabinlar olqishiga sazovor bo‘lishdi.

Bu yil beshinchi bor bitiruvchilarni kuzatdik. Besh yildirki, barcha bitiruvchilarimiz nufuzli oliy o‘quv yurtlarining talabasi bo‘lmoqda. Ular orasida jahonning nufuzli universitetlarida o‘qiyotganlari ham bor.

Shuni mamnuniyat bilan aytamanki, bugun eng zamonaviy sharoitlarga ega, hatto rivojlangan mamlakatlarning havasini keltirayotgan maktablarda ishlab, yosh avlodga ta’lim berayotganimiz – biz, o‘qituvchilar uchun mustaqilligimizning eng katta tuhfalaridan biri. Va albatta, har jihatdan jadal taraqqiy etayotgan O‘zbekistonimiz baxtiyor bolalarining baxtiyor ustozlari ekanimdan faxrlanamiz.

Pokiza AHMEDJONOVA,
Sirdaryo viloyatidagi Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ijod maktabi direktori, Oliy Majlis Senati a’zosi.

Deputat minbari

EL ISHONCHI – SHARAFLI MAS’ULIYAT

Kechagidek esimda, mustaqillik e’lon qilingan paytda yigirma yoshdagi navnihol talaba edim. Ulg‘ayib katta hayotga qadam tashlashim, boy tajriba orttirishim aynan mustaqillik yillari bilan barobar kechdi. Oradan o‘tgan o‘ttiz besh yil bir insonnigina emas, katta bir avlodning kamol topishi uchun yetarli muddat bo‘ldi, deb o‘ylayman. Bu yillar davomida mamlakatimiz asriy sinovlarni mardonavor yengib o‘tib, o‘z istiqbol hamda taraqqiyot yo‘lini belgiladi. Davlat, millat va xalq sifatida birlashdi, zalvarli tarix yaratdi.

Mamlakatimiz mustaqilligining qutlug‘ o‘ttiz besh yilligini kutib olar ekanmiz, men uni o‘tmishdan saboq chiqarish, erishilgan natijalarni xolis baholash va kelajakdagi maqsadlarimizni belgilash fursati, deb bilaman.

Davlat tashkilotlarida turli lavozimlarda mehnat qilib kelyapman. Xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashi deputati sifatida mana, qariyb o‘n yildirki, odamlar orasidaman. Aynan deputatlik meni xalqqa, xalqni menga yaqinlashtirdi, ular bilan bir tan-u bir jon bo‘lishga, shu aziz Vatan ravnaqi yo‘lida birlashishga undadi. Xalq ichida yurib, yutug‘i-yu muammolari bilan yuzlashib, yaxshi-yomon kunlarida yelkadosh bo‘lib, farzandlik, fuqarolik burchimni yanada his etdim. Men xalq vakili bo‘lgan Muzrabot tumani 7-Yangiobod saylov okrugidagi har bir mahalla, har bir xonadon, har bir fuqaro yaxshi tanish. 16 ta mahalla va qishloq, 29 975 nafar saylovchini qamrab olgan ushbu hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, obodonlashtirish, aholi turmush farovonligini oshirish yo‘lida, oz bo‘lsa-da, hissa qo‘shib kelyapman.

Albatta, hudud o‘ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy muammolardan xoli emas. Asosan, sholi yetishtirish va chorvachilikka ixtisoslashtirilgan tumanda sanoat va ishlab chiqarishni rivojlantirish, yangi ish o‘rinlari yaratish, aholi daromadlarini oshirish va kambag‘allikni kamaytirish, ijtimoiy reyestrdagi oilalar bilan manzilli ishlash, ularni kasb-hunarga o‘qitish orqali doimiy bandlikka jalb etish, shu bilan birga, yo‘l ta’miri, elektr, gaz, suv ta’minoti, maktablar va shifoxonalar holatini yanada yaxshilash, yangi maktabgacha ta’lim muassasalari faoliyatini yo‘lga qo‘yish kabi ishlar kutib turibdi.

Masalan, o‘rganishlarimiz natijasida Gulobod mahallasida zamonaviy davlat maktabgacha ta’lim tashkilotiga ehtiyoj borligi aniqlandi. Deputatlik so‘rovi orqali masala mutasaddilarga yetkazildi.



Ayni paytda umumiy qiymati 3 mlrd. 794 mln. so‘mni tashkil etadigan 90 o‘rinli muassasa qurilishi avjida. Vakolatimizdan foydalanib, qurilish jarayonining shaffofligini muntazam nazorat qilib boryapmiz. Obyekt foydalanishga topshirilgach qamrov kengayibgina qolmasdan, jajji kichkintoylar uchun zamonaviy va sifatli maktabgacha ta’lim olish imkoniyati yaratiladi.

Yaqinda Yangiyer mahallasidan murojaat tushdi. Unda aytilishicha, Prezidentimizning 2024-yil 28-martdagi qarori asosida Islom taraqqiyot banki ishtirokida amalga oshirilayotgan “Qishloq joylarni kompleks rivojlantirish” loyihasi doirasida ushbu mahallada keng ko‘lamli infratuzilma ishlari rejalashtirilgan. Jumladan, 1 km. piyodalar yo‘lakchasi qurish va energotejamkor tungi yoritish chiroqlarini o‘rnatish, 19,5 km. asosiy va ichki yo‘llarni asfaltlash, 30 km. elektr tarmoqlarini mukammal ta’mirlash, 250 kVA quvvatga ega 4 ta transformator o‘rnatish hamda 3 ta piyodalar uchun osma ko‘prik qurish ko‘zda tutilgan. Biroq ayrim sabablarga ko‘ra, bu ishlar to‘xtab qolgan. Deputatlik so‘rovi natijasida rejalashtirilgan ishlar jadallashdi. Mahallaning 15 kilometrdan ortiq ichki yo‘llariga asfalt yotqizildi. Bu qulay transport harakati, infratuzilmani yaxshilash yo‘lida muhim qadam bo‘ldi.

Dehqonobod mahallasining Qaldirg‘och ko‘chasi yoqalab zovur o‘tgan va uning narigi tomonida 10-umumta’lim maktabi joylashgan. Ushbu ko‘chada istiqomat qiluvchi 100 nafardan ziyod o‘quvchilar zovur ustidagi omonatgina quvurdan o‘tib maktabga qatnaydi. Boshqa ko‘chalar orqali borish esa ko‘p vaqt oladi. Aholi murojaatidan kelib chiqib, mutasaddilarni vaziyatdan xabardor qildim. Ko‘prik qurish ishlari rejalashtirildi.

Ehtimol, kim uchundir bular juda kichik masalalar bo‘lib tuyular? Ammo ishonamanki, deputat uchun muammoning katta yoki kichigi bo‘lmaydi. Chunki har bir murojaat ortida nafaqat bir, balki o‘nlab yurtdoshlarimiz taqdiri bor. Ta’mirlangan bir necha kilometrlik yo‘l odamlarning vaqti tejalishiga, hal etilgan ichimlik suvi muammosi o‘nlab oilalarning turmush sifati yaxshilanishiga xizmat qilsa, yoshlarga bergan ko‘magimiz ularning kelajagiga, obodonlashtirilgan manzillar esa yurtdoshlarimizning ertangi kunga ishonchiga zamin yaratadi.

Shuni alohida e’tirof etish kerakki, so‘nggi yillarda mamlakatimizda xalq deputatlari mahalliy Kengashlarining hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholini ijtimoiy himoyalashga qaratilgan dolzarb masalalarni hal qilishdagi vakolatlari kengaytirilib, keng qamrovli islohotlar amalga oshirildi. Bosh qomusimizda ham mahalliy Kengash raisi va hokim lavozimlari biri-biridan ajratildi. Bugun “Kuchli Kengash, hisobdor va tashabbuskor hokim” tamoyili izchillik bilan ro‘yobga chiqarilayotir.

Bunday imkoniyatlar biz, mahalliy Kengash deputatlari zimmasiga yanada katta mas’uliyat yuklaydi. Bugun har bir fuqaroning ovozi eshitiladigan, har bir deputat esa o‘sha ovozni amalga oshiradigan tizim shakllanmoqda. Eng muhimi, xalq va hokimiyat o‘rtasidagi masofa qisqaryapti.

Donolar aytganidek, “El senga ishonsa, tog‘ni ham ko‘tarasan”. “Yil tanlovi – 2022” respublika bosqichida 114 mingdan ortiq ovozlar bilan “Yilning eng faol viloyat Kengashi deputati” yo‘nalishida g‘olib bo‘ldim. 2024-yilda davlatimiz rahbari Farmoniga ko‘ra, “Do‘stlik” ordeni bilan mukofotlandim. Bu katta ishonch xalqimiz farovonligi, yurtimiz ravnaqi yo‘lida fidoyi mehnat qilishga undaydi.

Dilfuza JO‘RAYEVA,
Surxondaryo viloyati davlat arxivi direktori, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

DORILAMON KUNLAR SHUKRONASI

Yoshi ulug‘ insonlarni e’zozlash, ularga ehtirom ko‘rsatish – xalqimizga xos yuksak fazilat. Ana shu ezgu an’anaga hamohang ravishda Prezidentimiz farmoniga binoan Vatanimiz mustaqilligining 35 yilligi arafasida yuz yoshdan oshgan bir guruh nuroniylar “Shuhrat” medali bilan taqdirlandi.

Shukuh

Ayni kunlarda mazkur mukofot joylarda o‘z egalariga tantanali ravishda topshirilmoqda.

Xatirchi tumanining ortig‘ini 91 yoshdan 100 yoshgacha bo‘lgan otaxon-u onaxonlar, qariyb o‘ttiz nafarini esa yuzdan oshgan bobo-yu momolar tashkil etadi.



Xususan, Qo‘shtepa tumaniga qarashli “Xalqobod” MFYda istiqomat qiluvchi 102 yoshli Iboxon aya Qosimova ana shunday sharafga munosib ko‘rildi. Farg‘ona viloyati hokimi Xayrullo Bozorov faollar hamda keng jamoatchilik vakillari bilan birga onaxon istiqomat qilayotgan xonadonda bo‘lib, ushbu davlat mukofotini Iboxon ayaga tantanali ravishda topshirdi.

Iboxon aya davlatimiz rahbarining bunday yuksak e’tiboridan boshi ko‘kka yetib, yurtga tinchlik, elga omonlik tilab duolar qildi.

Ta’kidlash o‘rinliki, Iboxon Qosimovaning yoshligi o‘tgan asrning eng qiyin va og‘ir yillari, Ikkinchi jahon urushi davrlariga to‘g‘ri keldi. Front ortida mehnat qilib, o‘zining harakatchanligi va mehnatsevarligi tufayli el-yurtda hurmat qozondi.

Shuningdek, onaxon Katta Farg‘ona kanalini qazish, cho‘l-dasht yerlarni o‘zlashtirish va qishloq xo‘jaligini rivojlantirishda faol ishtirok etdi. Hayotning ko‘p yaxshi-yomon kunlarini boshidan kechirgan bo‘lishiga qaramay 4 nafar farzandni elga munosib insonlar qilib kamolga yetkazdi. Pir-u badavlat xonadon sohibi bugungi kunda 16 nevara, 36 evaraning ardog‘ida umrguzaronlik qilmoqda.

– Bu faqat mening emas, butun oilam, mahallamning mukofoti, –deydi mehmonlar tashrifidan behad sevingan onaxon. – Chunki doimo shu insonlarning mehri, yordamidan kuch olaman, hayotga, yashashga ishtiyoqim ortadi. Prezidentimizning menga mukofot berganini eshitib, qalbimda dorilamon kunlar shukronasi jo‘sh urdi. Boshimdan o‘tgan qiyinchiliklar unutildi. Bu yurtda halol mehnat qilgan, yaxshi farzandlar tarbiyalagan inson hamisha davlatimizning e’tiborida ekanini his qildim. Prezidentimizga, barcha-barchaga rahmat, boshlaring omon bo‘lsin!

Chindan-da, pir-u badavlat keksalarimiz nafaqat oila fayzi, balki millat boyligi, jamiyat yutug‘i, elning faxridir. Basharti so‘z farovonlik va keksalik xususida borarkan, inson manfaatlari davlat manfaatidan-da ustun belgilangan yurtimizda o‘rtacha umrning yil sayin oshayotgani diqqatga molik. Boisi mustaqillik yillarida aholining o‘rtacha umri rosa to‘qqiz yilga ko‘payib, bu har to‘rt yilda bir yilga ortdi, deganidir.

Birgina Navoiy viloyatida bugun keksalik gashtini surayotganlarning 400 nafardan Samarqand mahallasida istiqomat qiluvchi Hakim ota Rajabov ham umrining 103-yilida yoshiga nisbatan ancha tetik. “Hayot atalmish buyuk voqelikda chindan ham tiriklikdan ulug‘roq ne’mat, uning mazmundorligidan teranroq boylik yo‘q”, deydi bobo shukronalik bilan.

– Biz, keksalar birgina e’tiborning sadag‘asimiz. Quvonchni samimiy shukronalikda deb bilamiz, – deydi Hakim ota. – Shunday sharofatli hayot, albatta, bizning kuchimizga kuch qo‘shadi. O‘tkazayotgan kunlarimizga ma’no-mazmun beradi.

Hakim bobo o‘tgan asrning eng murakkab davrlarida, Ikkinchi jahon urushi paytidagi qahatchilik yillarida hamqishloqlari bilan birga g‘alla, pilla, chorva mahsulotlari yetishtirish borasida erta tongdan kechgacha fidokorona mehnat qilib, el-yurt farovonligi yo‘lida o‘zining kuch-g‘ayratini ayamagan tabarruk insonlardan. Keyinchalik u hayotini qishloq xo‘jaligi bilan bog‘lab, to pensiyaga qadar suvchilik kasbiga sodiq qolgan. Boy hayotiy tajribaga ega otaxon hozirgi kunda ham yoshlardan, mahalladoshlaridan o‘z maslahatlarini ayamaydi. Ularni g‘ayratli, shijoatli, ezgu ishlarga bosh bo‘lishga chorlab, bugungi dorilamon kunlarga shukrona



keltiradi. Davlatimiz rahbari olib borayotgan odilona siyosatdan faxrlanadi. Mahalladoshlarini to‘y-ma’rakalarni kamchiqim, isrofgarchilikka yo‘l qo‘ymasdan o‘tkazishga, shukronalik hissi bilan yashashga undaydi.

Mustaqilligimizning 35 yilligi munosabati bilan Prezidentimizning Farmoniga ko‘ra, bir guruh yurtdoshlarimiz qatorida Hakim bobo Rajabov ham “Shuhrat” medali bilan taqdirlandi.

Mazkur davlat mukofotini otaxonga Navoiy viloyati hokimi Normat Tursunov topshirib, bayram bilan qutladi.

Samimiy suhbat davomida uzoq umr ko‘rish sirlari, hayot saboqlari va bugungi osuda kunlar haqida dildan gurung qurildi. Ehtiromdan boshi osmonga yetgan otaxon yurtimiz tinchligi, xalqimiz farovonligi va osoyishtaligi uchun duolar qildi.

“Xalq so‘zi”.

AHOLI MANFAATLARI – ASOSIY MEZON

– Ertangi tadbirga vaqtida yetib boring!

Odatiy ish kunini yakunlayotgan Zilola Shukurovaga mahalla raisining bu gapi xuddi “Kechikish uchun endi avvalgiday transport sabab bo‘lmaydi”, degandek eshitildi.

– Xayriyat-ye, – o‘yladi u uyiga qaytar ekan. – Endi viloyat markaziga borish uchun avvalgidek uzoq vaqt mashina kutish, birgina yo‘lning o‘ziga bir yarim soatlab vaqt sarflash kerakmas. Shu transport muammosi tufayli necha marotaba xizmat yig‘ilishlariga kech qolgan, mehnat intizomiga rioya qilish haqida tanqid eshitgan paytlarim bo‘ldi-ya...

Mahalliy Kengashlarda

Darvoqe, ko‘zlangan manzilga vaqtida yetib borish, rejalashtirilgan ishlarga ulgurish ko‘p jihatdan qulay transport vositasiga bog‘liq. Ammo Kogon tumani Hukumatobod va Geofizika mahallalari aholisi uchun bu qulaylik anchadan beri ushalmas orzuday edi. Olti yarim mingdan ziyod aholi istiqomat qiladigan mazkur hududlarni viloyat markazi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘laydigan jamoat transporti yo‘qligi tufayli yo‘l yurish yosh-u qariga birdek mushkullik tug‘dirardi.

– Qariyb yigirma yildirki, Hukumatobod mahallasida kompleks xizmat ko‘rsatuvchi xodim sifatida faoliyat yuritaman, – deydi suhbatdoshimiz Zilola Shukurova. – Buxoro shahridan 12 km. uzoqlikda joylashgan mahallamizdan biror yumush bilan markazga borishga to‘g‘ri kelsa, Geofizika – Hukumatobod yo‘nalishidagi qishloq taksilaridan keyin yana bir yoki ikkita transportga chiqishga to‘g‘ri kelardi. Ularning ham muntazam qatnamasligi vaziyatni yanada qiyinlashtirardi. Bu holat ko‘p vaqtni olish bilan birga, har kuni mahallamizdan markazga qatnab o‘qiydigan 600 nafarga yaqin o‘quvchilar, talabalar, 1200 dan ziyod ishchi-xizmatchilardan ancha-muncha mablag‘ ham talab etardi. Endi qishning qor-qirovli, yozning jazirama issiqlaridagi holatni o‘zingiz tasavvur etib ko‘ring... Joriy yilning iyul oyidan barcha qulayliklarga ega, zamonaviy rusumdagi 4-avtobus qatnovi yo‘lga qo‘yildi. Bundan xalqimiz juda xursand. Natijada yo‘lkira xarajatlari sezilarli kamayib, manzilga yetib borish osonlashdi, ish va o‘qishga kechikish tashvishiyam barham topdi.

Albatta, bu ishlar o‘z-o‘zidan bo‘lib qolgani yo‘q. Dastlab mahalla aholisi deputatlar bilan uchrashuvda ushbu masalani ko‘tarib chiqdi. Shundan so‘ng xalq deputatlari viloyat Kengashi deputati Zulfiya Tuyeva va tuman Kengashi deputati Anvar Asadov tomonidan ushbu muammoni bartaraf etish bo‘yicha mutasaddi tashkilotlarga deputatlik so‘rovi yuborildi. Shu tariqa Geofizika va Hukumatobod mahallalariga avtobus qatnovi yo‘lga qo‘yildi. Hozirgi kunda zamonaviy qulayliklarga ega 5 ta avtobus odamlarning uzog‘ini yaqin qilmoqda. Yaqin kunlarda ular sonini 15 taga ko‘paytirish rejalashtirilgan. Ayni paytda qatnovlar orasidagi vaqt taxminan 10 – 15 daqiqani tashkil etsa, tez orada 5 – 7 daqiqaga qisqarishi kutilyapti.

Aslida ham saylovchilar manfaatlarini himoya qilish, hududlardagi muammolarni aniqlash va ularning yechimiga erishish mahalliy Kengash deputatlarining muhim vazifalaridan biri. Deputatlik so‘rovlari orqali davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ustidan ta’sirchan deputatlik nazoratini amalga oshirish, dolzarb masalalarni mutasaddi tashkilotlar oldiga qo‘yish va ularning ijrosi yuzasidan qat’iy nazorat olib borish imkoni bor.

Kogon tumanida ham olib borilayotgan tizimli ishlar sabab, deputatlik nazorati amalda o‘zining ijobiy samarasini bermoqda. Joriy yilning o‘tgan davrida xalq deputatlari Kogon tumani Kengashi deputatlari tomonidan tuman hokimligi, korxona va tashkilotlar rahbarlariga jami 85 ta deputatlik so‘rovi yuborildi. Mazkur so‘rovlarning 59 tasi ijobiy hal etilib, 26 ta murojaatda ko‘tarilgan masala davlat dasturlari doirasida bosqichma-bosqich amalga oshirilishi rejalashtirilgan. Bu esa birorta ham deputatlik so‘rovi bee’tibor qolmayotgani, har bir murojaat qonunchilik asosida ko‘rib chiqilib, ijrosi nazorat qilinayotganini ko‘rsatadi. Xalq deputatlari Kogon tumani Kengashida faoliyat yuritayotgan 20 nafar deputat tumanning 23 ta mahallasiga mas’ul, ular o‘z saylov okruglarida fuqarolar bilan muntazam uchrashuvlar o‘tkazib, hududlardagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni o‘rganish, murojaatlarni tinglash va aniqlangan muammolar yuzasidan deputatlik so‘rovlari yuborish orqali xalq manfaatlarini ta’minlashga munosib hissa qo‘shib kelayotir.

Deputatlik so‘rovlarining samaradorligi amaliy misollarda yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Jumladan, tuman Kengashi deputati Inobat Hamidova Siyoz Poyon va Sho‘robod qishloqlarini bog‘lovchi yo‘lning nosozligi yuzasidan yuborgan deputatlik so‘rovi natijasida 3 km. avtomobil yo‘li to‘liq asfaltlashtirildi. Xalq deputatlari Kogon tumani Kengashi raisi Hurmat Tursunovaning deputatlik so‘rovi natijasida Tun Iroq mahallasining markaziy ko‘chasidan 15-umumta’lim maktabiga boruvchi yo‘l chetida zamonaviy piyodalar yo‘lakchasi barpo etildi.

Yoki Deputat Yo‘ldosh Bozorov tomonidan tuman yo‘l qurilish unitar korxonasi hamda tuman suv ta’minoti bo‘limiga yuborilgan deputatlik so‘rovlari sabab Beklar mahallasida 3,5 km. ichki yo‘l ta’mirlanib, 1,5 km. yangi ichimlik suvi tarmog‘i tortildi. Yana bir xalq vakili Umidjon Qurbonovning Choloki mahallasida maktabgacha ta’lim muassasasiga bo‘lgan ehtiyoj bo‘yicha deputatlik so‘rovi tufayli yangi davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti qurilib, foydalanishga topshirildi. Deputat Dildora Murodova tomonidan Sarayon mahallasidagi ichki yo‘llarning ta’mirtalab holati bo‘yicha deputatlik so‘rovi asosida ichki ko‘chalar asfalt qilindi.

– Deputatlar faoliyati doimiy tarzda muvofiqlashtirilishi, murojaatlarni o‘rganish, ular yuzasidan deputatlik so‘rovlarini tayyorlash va ijrosini nazorat qilish ishlarining muntazam tahlil etib borilgani bois, mazkur ishlarning ijobiy natijadorligi o‘tgan yildagiga nisbatan 17,5 foizga oshdi, – deydi xalq deputatlari Kogon tumani Kengashi kotibiyat mudiri Alisher Bozorov. – Chunki deputatlik so‘rovi shunchaki rasmiy hujjat emas. U fuqarolar murojaatini amaliy yechimga aylantiradigan, davlat organlari faoliyatining mas’uliyatini oshiradigan, eng muhimi, hududlarni rivojlantirishga xizmat qiladigan samarali huquqiy vosita. Deputatlik nazorati natijasida xalqimiz manfaatlari ta’minlanib, saylovchilarning davlat organlari hamda mahalliy Kengashlarga ishonchi yanada mustahkamlansa, bu bizning eng katta yutug‘imiz bo‘ladi.

Ta’kidlash kerakki, xalq ishonchini qozonishning eng muhim omili aholi muammolariga befarq bo‘lmaslik va ularni amalda hal etishga erishishdir. Chunki har bir ijobiy hal qilingan deputatlik so‘rovi ortida minglab fuqarolarning ishonchi, mahallalar rivoji, pirovardida esa jamiyat ravnaqi, yurt taraqqiyoti mujassam.

Dilnoza HAYITOVA
(“Xalq so‘zi”).

AQShda Sietl va Vashingtondan keyin Oregon shtati hamda Sitak shahri ham 2026-yil 1-sentabrni rasman “O‘zbekiston Mustaqilligi kuni” deb e’lon qildi.

Xalq irodasi – qonun – natijadorlik:

35 YILLIK PARLAMENTARIZM SABOQLARI

1 Ana shu nuqtai nazardan, O‘zbekiston parlamentarizmining 35 yillik taraqqiyotini uch muhim bosqichga ajratish mumkin: mustaqil davlatchilikning huquqiy poydevorini yaratish, ikki palatali parlament tizimini shakllantirish va Yangi O‘zbekistonda xalqchil, ta’sirchan va natijaga yo‘naltirilgan parlamentarizmni qaror toptirish.

Mustaqillikning dastlabki yillarida parlament oldida oddiy qonun ijodkorligidan ancha katta vazifa turgan edi. Yangi davlatning huquqiy arxitekturasini yaratish, hokimiyatlar bo‘linishi prinsipini qaror toptirish, inson huquq va erkinliklarini kafolatlash, bozor iqtisodiyotiga o‘tishning huquqiy asoslarini shakllantirish zarur edi.

1992-yilda qabul qilingan Konstitutsiya xalqni davlat hokimiyatining yagona manbai sifatida e’tirof etib, Oliy Majlisni qonun chiqaruvchi oliy davlat vakillik organi sifatida belgiladi. Birinchi va ikkinchi chaqiriq Oliy Majlis faoliyati davrida 230 dan ziyod qonunlar qabul qilindi. Ular milliy davlatchilikning institutsional va huquqiy poydevorini yaratdi.

1994-yilda ko‘p partiyaviylik asosida o‘tkazilgan parlament saylovlari esa vakillik demokratiyasining muhim siyosiy asosini shakllantirdi.

2002-yilgi umumxalq referendumi milliy parlamentarizm taraqqiyotida yangi bosqichni boshlab berdi. Referendumda qatnashganlarning 93,65 foizi Oliy Majlisni ikki palatali parlament sifatida tashkil etish g‘oyasini qo‘llab-quvvatladi.

Qonunchilik palatasi professional qonun ijodkorligi institutiga, Senat esa hududlar manfaatlarini milliy darajada ifoda etuvchi vakillik palatasiga aylantirildi. Bu qonun ijodkorligining professionallashuvi, hududiy manfaatlarni hisobga olish va qabul qilinayotgan qarorlar sifatini oshirishga qaratilgan institutsional islohot bo‘ldi. Biroq parlamentarizmning eng katta o‘zgarishi hali oldinda edi.

Xalq irodasining hayotga ko‘chish zanjiri

So‘nggi o‘n yillik O‘zbekiston milliy parlamentarizmi tarixida alohida davr sifatida namoyon bo‘lmoqda. Prezidentimiz Mustaqillik bayramidagi nutqida bu jarayonning mohiyatini aniq ifodalab, “Inson qadri uchun” g‘oyasi davlat siyosatining markaziga olib chiqilganini ta’kidladi.

Bu yondashuv parlamentarizm mazmuniga ham yangi talab qo‘ydi. Endilikda qonunlarning qiymati ularning soni bilan emas, balki inson hayotini qanchalik o‘zgartirayotgani bilan o‘lchanadi.



Agar 2009 – 2016-yillarda Qonunchilik palatasi 305 ta qonun loyihasini ko‘rib chiqqan bo‘lsa, 2017 – 2025-yillarda bu ko‘rsatkich 1456 taga yetdi. Qonunchilik palatasining qonun ijodkorligi faolligi qariyb 5 baravar oshdi, deputatlarning qonunchilik tashabbusi huquqidan foydalanishi esa 65 tadan 163 taga oshdi. Parlamentning 2025 – 2029-yillarga mo‘ljallangan Qonun ijodkorligi dasturida 40 ta muhim qonun loyihasi qabul qilinishi nazarda tutilgani esa parlament qonun ijodkorligida tizimli rejalashtirishga o‘tganini ko‘rsatadi.

Biroq bu raqamlarning o‘zi maqsad emas. Ular parlament faoliyati mazmuni o‘zgarayotgani ifodasidir: xalqning muammosi va ehtiyoji tobora ko‘proq parlament kun tartibiga kirib, huquqiy yechimga aylanmoqda.

Yangi O‘zbekiston parlamentida xalq bilan, saylovchilar bilan muloqot deputatlar faoliyatining bosh mezoniga aylandi. Deputatlarning muntazam ravishda saylov okruglariga chiqishi, aholi va tadbirkorlar bilan uchrashishi, qonunlarning amaldagi natijadorligini o‘rganishi shu yangi yondashuvning amaliy namunasidir.

Ayniqsa, mahalla bilan parlament o‘rtasidagi bog‘liqlikning kuchayishi muhim. Chunki odamlarning kayfiyati, oilalar farovonligi, tadbirkorlarning tashabbusi, avvalo, mahallada namoyon bo‘ladi. Kuni kecha Prezidentimiz ilgari surgan yangi yondashuvga ko‘ra endilikda mahalla jamiyat taraqqiyotining “asosiy buyurtmachisi”ga aylanadi. Bu esa xalq irodasining davlat qarorlariga aylanish zanjirini yanada kuchaytiradi: fuqaro – mahalla – deputat – parlament – qonun – ijro – natija.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya xalqchil va ta’sirchan parlament faoliyatiga muhim konstitutsiyaviy asos berdi. Unga ko‘ra, parlament vakolatlari sezilarli darajada kengaydi. Qonunchilik palatasining mutlaq vakolatlari 5 tadan 12 taga, Senatning mutlaq vakolatlari 14 tadan 18 taga oshirildi. Bosh vazir nomzodini ko‘rib chiqish va ma’qullash, Davlat byudjeti ijrosini nazorat qilish, Hisob palatasi hisobotini ko‘rib chiqish, hukumat va uning a’zolari hisobotlarini eshitish, vazirlar nomzodlarini ma’qullash kabi muhim vakolatlarning Qonunchilik palatasiga berilishi parlamentning ijro hokimiyati ustidan nazoratini yangi sifat bosqichiga olib chiqdi.

Parlament nazorati ham mazmunan o‘zgardi. Bugun uning vazifasi faqat vazir yoki idora rahbarining axborotini eshitish bilan cheklanmaydi. Maqsad – qonunlar ijrosidagi muammolarni aniqlash, mas’ullar javobgarligini oshirish va fuqarolar ko‘targan masalalarga amaliy yechim topish.

Ayni paytda parlament nazoratining 18 ta shakli amaliyotga joriy etilgan. 2018-yilda Prezidentimiz tashabbusi asosida “Hukumat soati” institutining joriy qilinishi ijro hokimiyati va parlament o‘rtasida ochiq muloqotning zamonaviy va ta’sirchan mexanizmini shakllantirdi. Shu kunga qadar qariyb 70 marotaba “Hukumat soati” o‘tkazilib, unda 77 nafar hukumat a’zosi deputatlarning savollariga javob bergan.

> *“Mustaqillikning 35-yili O‘zbekiston parlamentarizmining shakllanish, institutsionallashish va sifat jihatdan yangilanish tarixidir. Bir palatali parlamentdan ikki palatali tizimga, vakillik funksiyasidan ta’sirchan parlament nazoratiga, sifatli qonunlardan ularning natijadorligiga, milliy darajadagi faoliyatdan global parlament diplomatiyasigacha bo‘lgan yo‘l bosib o‘tildi. Ayniqsa, so‘nggi o‘n yillikda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev boshchiligidagi izchil islohotlar bu jarayonga mutlaqo yangicha mazmun-mohiyat, yangicha sur’at va shiddat baxsh etdi. Yangi O‘zbekistonda parlament tom ma’noda xalq ovozini qonunga, qonunni esa amaliy natijaga aylantiradigan institut sifatida qaror topdi.”*

Bu raqamlar ortida muhim bir g‘oya mujassam – Yangi O‘zbekistonda hukumatning xalq vakillari, demak, xalq oldidagi hisobdorligi amalda ta’minlanmoqda. To‘g‘risini aytish kerak, avvallari parlamentga vazirlar u yoqda tursin, ularning o‘rinbosarlarini keltirish ham oson ish bo‘lmagan. Aynan Prezidentimizning xalqchil siyosati tufayli bugun hukumat rahbariyati, vazirlar va boshqa idoralar yetakchilari tizimli ravishda parlamentda bo‘lib, o‘z faoliyati haqida xalqimizga ochiq hisobot va axborot berib bormoqda.

Eng muhimi, Murojaatnoma deputatlik mas’uliyatini ham o‘zgartirdi. Endilikda deputat faoliyati davlat rahbari belgilab bergan strategik vazifalarning hududlarda qay darajada amalga oshirilayotgani ustidan ta’sirchan nazoratni olib borish va odamlar hayotida amaliy natijalarga erishishga qo‘shgan hissasi bilan baholanmoqda.

Yangi O‘zbekiston parlamentarizmining eng katta sifat o‘zgarishlaridan yana biri – Oliy Majlisning xalqaro parlament diplomatiyasidagi rolining keskin oshgani. Bugun O‘zbekiston parlamenti Parlamentlararo Ittifoq, YXHT Parlament Assambleyasi, MDH Parlamentlararo Assambleyasi, Osiyo parlamentlari Assambleyasi va Markaziy Osiyo parlamentlari forumi kabi nufuzli platformalarda faol ishtirok etmoqda. Parlamentlararo hamkorlik doirasida Qonunchilik palatasida 70 ta davlat parlamenti bilan do‘stlik va hamkorlik guruhlari tuzilgan.

Ochiq siyosiy muloqotning yangi mezoni

So‘nggi yillarda parlament uchun strategik vazifalarni belgilash, qonun ijodkorligi va parlament nazoratini yangi maqsadlarga yo‘naltirishda Prezidentning Oliy Majlisga yo‘llanadigan Murojaatnomasi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ilgari mamlakat taraqqiyotiga oid eng muhim vazifalar, asosan, davlat idoralari kabinetlarida muhokama qilingan bo‘lsa, Yangi O‘zbekistonda bu jarayon xalq vakillari ishtirokida, butun xalqimiz ko‘z o‘ngida kechmoqda. Prezident Murojaatnomasi ochiq siyosiy muloqotning mutlaqo yangi madaniyatini shakllantirdi.

Oliy Majlis xalqlar va davlatlarning umumiy manfaatlari asosida dolzarb masalalarni hal etishda, tinchlik, ijtimoiy taraqqiyot va adolatni ta’minlashda nafaqat milliy darajada, balki xalqaro tashabbuslar orqali ham faol qatnashmoqda.

Bu borada Prezidentimiz tashabbusi bilan BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish hamda ijtimoiy rivojlanishni jadallashtirishda parlamentlarning rolini kuchaytirishga oid ikkita rezolyutsiya muhim ahamiyatga ega. Bu ikki rezolyutsiyani bir nuqta birlashtiradi: zamonaviy parlament endi faqat qonun qabul qiluvchi organ emas, balki inson taraqqiyoti va ijtimoiy adolatni ta’minlashning strategik institutidir.

O‘zbekistonning parlament diplomatiyasi mintaqaviy o‘lchamda ham yangi mazmun kasb etmoqda. Xususan, 2023-yilda Qozog‘istonning Turkiston shahrida, 2024-yilda Xivada, 2025-yilda Bishkek shahrida Markaziy Osiyo parlamentlari forumlari o‘tkazilishi qo‘shni davlatlar parlamentlari o‘rtasida muntazam muloqot va amaliy hamkorlik mexanizmlari izchil rivojlanayotganini ko‘rsatadi. Ushbu platforma mintaqaviy kelishuvlarni qonunchilik va parlament nazorati vositalari orqali qo‘llab-quvvatlash, tajriba almashish va umumiy manfaatlarga daxldor masalalar bo‘yicha muvofiqlashtirilgan yondashuvlarni shakllantirish uchun muhim ahamiyatga ega.

Raqamli parlamentdan – intellektual tizimga

Parlament islohotlari endi raqamli transformatsiyadan tashqarida kechishi mumkin emas. “Project.gov.uz” va “e-qonun.uz” platformalari qonun loyihalarini ishlab chiqish, kelishish va parlamentda ko‘rib chiqish jarayonlarini raqamlashtirishga xizmat qilmoqda. Qonunchilik palatasida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish saylovchilar bilan muloqotni kuchaytirish, huquqiy kolliziyalarni aniqlash, qiyosiy tahlil o‘tkazish, qonun loyihalarini takomillashtirish va qonunning amaldagi ijrosi monitoringini yuritish imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

Prezidentimizning Mustaqillikning 35 yilligiga bag‘ishlangan nutqida IT, sun’iy intellekt va kreativ iqtisodiyotni rivojlantirish kelgusi taraqqiyotning muhim omillari sifatida belgilandi. O‘zbekiston texnologiya sohalarida jahonga ilg‘or tashabbuslarni taklif qiladigan markazga aylanishi, o‘zbek tili esa raqamli dunyoda ilm va texnologiya yaratiladigan til bo‘lishi lozimligi ta’kidlandi.

Bu vazifalar parlament oldiga ham yangi talablarni qo‘yadi. Qonun ijodkorligi tobora ko‘proq ma’lumot, tahlil va texnologiyalarga tayanishi, qonunlarning ta’siri esa raqamli vositalar orqali baholanishi kerak.

Parlamentning yangi vazifasi: strategiya va natija

Mustaqillikning 35-yili O‘zbekiston parlamentarizmining shakllanish, institutsionallashish va sifat jihatdan yangilanish tarixidir. Bir palatali parlamentdan ikki palatali tizimga, vakillik funksiyasidan ta’sirchan parlament nazoratiga, sifatli qonunlardan ularning natijadorligiga, milliy darajadagi faoliyatdan global parlament diplomatiyasigacha bo‘lgan yo‘l bosib o‘tildi. Ayniqsa, so‘nggi o‘n yillikda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev boshchiligidagi izchil islohotlar bu jarayonga mutlaqo yangicha mazmun-mohiyat, yangicha sur’at va shiddat baxsh etdi. Yangi O‘zbekistonda parlament tom ma’noda xalq ovozini qonunga, qonunni esa amaliy natijaga aylantiradigan institut sifatida qaror topdi.

2026-yilda yangilangan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi natijalarning o‘lchanishi, monitoringni raqamlashtirish, davlat organlarining mas’uliyati va strategik rejalashtirish uyg‘unligiga e’tiborni kuchaytirdi.

Shu bilan birga Prezidentimiz mustaqillikning 35 yilligiga bag‘ishlangan nutqida kelgusi o‘n yillikni milliy yuksalish davri sifatida qayd etib, inson qadrini yanada yuksaltirishga qaratilgan yettita milliy dasturni ilgari surdi. Ular bilim va malaka, sog‘lom va uzoq umr, yuqori texnologiya va mehnat unumdorligiga asoslangan iqtisodiyot, suv va ekologiya, sud mustaqilligini kuchaytirish va qonun ustuvorligini ta’minlash, mahalla taraqqiyoti hamda O‘zbekistonning tinchlikparvar va bag‘rikeng davlat sifatidagi nufuzini oshirish kabi o‘zaro bog‘liq muhim ustuvor yo‘nalishlarni qamrab oladi.

Bu vazifalar parlament faoliyatining mazmuniga ham bevosita ta’sir etadi. Kelgusi bosqichda parlamentning muhim roli qonun ijodkorligi, parlament nazorati va fuqarolar bilan muloqotni yagona natijadorlik tizimiga birlashtirishda namoyon bo‘ladi.

Rahim HAKIMOV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikerining o‘rinbosari.

Iqtisodiy yuksalishdan milliy taraqqiyot sari

Yangi Toshkentda yurtimiz hayotidagi eng ulug‘ va qutlug‘ sanalardan biri – Vatanimiz mustaqilligining 35 yilligi “Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yarataylik!” degan bosh g‘oya ostida keng nishonlandi. Bayram tantanalari xalqimizning istiqlolga yuksak ehtiromi, Vatan taqdiriga daxldorlik hissi va kelajakka mustahkam ishonchini yana bir bor yorqin namoyon qildi.

Munosabat

Ayniqsa, davlatimiz rahbarining tantanali marosimdagi nutqi istiqlolning 35 yillik sharafli taraqqiyot yo‘lini sarhisob qilish bilan birga, mamlakatimizning kelgusi o‘n yillikdagi rivojlanish yo‘nalishlarini belgilab bergani bilan alohida ahamiyat kasb etdi. Zero, unda Yangi O‘zbekistonni yanada yuksaltirish, inson qadri va xalq farovonligini ta’minlashga qaratilgan aniq maqsad va ustuvor vazifalar belgilab berildi.

Darhaqiqat, mustaqillik, avvalo, bizga shon-u sharafimizni, ona tilimizni, unutilayotgan milliy qadriyatlarimizni qaytarib berdi. Istiqlol tufayli biz o‘zligimizni angladik, nomi hamisha e’zozda bo‘lgan ota-bobolarimizning munosib vorislari ekanimizni butun dunyoga namoyon etdik. Bu tarixiy jarayon xalqimizning milliy o‘zligini yanada teran anglashi, tarixiy xotirasi va ma’naviy ildizlariga hurmatini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Keyingi yillardagi siyosiy iroda tufayli bugun “Inson qadri uchun” g‘oyasi davlat siyosatining markaziga olib chiqildi. Birinchi galda “paxta qulligi”, majburiy va bolalar mehnati, konvertatsiya cheklovi hamda “propiska” kabi odamlarni yillar davomida qiynab kelgan muammolarga barham berildi. Asosiysi, fuqarolarimiz yuragidagi qo‘rquv va hadik o‘rnini ishonch va xotirjamlik egalladi.

Prezidentimiz tomonidan uzoqni ko‘zlab olib borilayotgan islohotlar natijasida O‘zbekiston dunyoga keng ochildi. Avvalo, yillar davomida dolzarb bo‘lib kelgan chegara masalalari hal etilib, qo‘shni davlatlar bilan do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik va o‘zaro manfaatli hamkorlik yangi bosqichga ko‘tarildi. Valyuta, soliq, bojxona va investitsiya siyosatida tub o‘zgarishlar amalga oshirildi. Natijada Iqtisodiy erkinlik indeksidagi o‘rnimizni 80 pog‘ona yaxshilab, “iqtisodiyoti mo‘tadil erkin” davlatlar qatoridan joy oldik.

Keyingi o‘n yilda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar natijasida O‘zbekistonning investitsiyaviy jozibadorligi sezilarli darajada oshdi. Ilgari iqtisodiyotimizga yiliga 2-3 mlrd. dollar xorijiy investitsiya olib kelingan bo‘lsa, hozirgi paytda 40 – 50 mlrd. dollar chet el sarmoyasi jalb qilinmoqda. Yurtimizga investitsiyalar bilan birga ilg‘or texnologiyalar, zamonaviy bilim va yangi iqtisodiy imkoniyatlar kirib kelyapti.

Yalpi ichki mahsulot hajmining izchil o‘sib borayotgani ham keyingi o‘n yildagi islohotlarning muhim natijalaridan biridir. Uch yil muqaddam 2030-yilga qadar YIMni 160 mlrd. dollarga yetkazish maqsadi belgilangan edi. Bugun esa jahon iqtisodiyotidagi murakkab vaziyat va global logistikadagi uzilishlarga qaramay, ushbu marraga shu yilning o‘zidayoq ortig‘i bilan erishilishi kutilmoqda. Bu mamlakatimiz iqtisodiyoti barqaror o‘sish sur’atini saqlab, taraqqiyotning yangi bosqichiga ko‘tarilayotganining yaqqol dalilidir.



Iqtisodiyotimizni yuqori texnologiyalar va mehnat unumdorligiga asoslangan yangi modelga o‘tkazish esa ishlab chiqarish samaradorligini ko‘tarish, yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar yaratish va raqobatbardoshlikni kuchaytirishga xizmat qiladi. Eng muhimi, bu zamonaviy va yuqori malakali ish o‘rinlarini ko‘paytirish, aholi daromadlarini oshirish, mamlakatimizni jahon iqtisodiyotida munosib o‘rin egallashi uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

Ana shu maqsadlardan kelib chiqib, kelgusi o‘n yilda 450 mlrd. dollar xorijiy investitsiya jalb etilishi, iqtisodiyotda yuqori o‘sish sur’atini saqlagan holda, 2030-yilgacha yalpi ichki mahsulot hajmi 300 mlrd. dollarga yetkazilishi, sanoatda 2 millionta yuqori daromadli ish o‘rni yaratilishi mamlakatning iqtisodiy salohiyatini yanada mustahkamlashga xizmat qilishi bilan e’tiborga molik. Asosiysi, ular orqali zamonaviy ishlab chiqarish quvvatlari kengayadi, yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar hajmi ortib, yangi ish o‘rinlari yaratiladi va aholining turmush farovonligi oshadi.

Yoshlarning salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarishda startap, venchur va sun’iy intellektni rivojlantirish innovatsion g‘oyalarni qo‘llab-quvvatlash, yangi biznes loyihalarini hayotga tatbiq etish va zamonaviy ish o‘rinlarini yaratishga turtki beradi. Kichik biznes – o‘rta biznesga, o‘rta korxonalar esa yirik kompaniya va korporatsiyalarga aylanishi uchun yaxlit ekotizim yaratilishi iqtisodiyotda raqobatbardoshlikni kuchaytirish, xususiy sektor salohiyatini oshirish va milliy kompaniyalarning xalqaro bozorlarga chiqishi uchun mustahkam zamin yaratadi.

Prezidentimiz nutqining eng muhim jihatlaridan biri – kelgusi o‘n yillikning “milliy yuksalish davri” sifatida belgilab berilganidir. Inson qadrini yanada yuksaltirish, xalq farovonligini oshirish va mamlakat taraqqiyotiga yangi sur’at bag‘ishlashga qaratilgan 7 ta milliy dastur ana shu yuksak maqsadlarning amaliy ifodasi. Bu dasturlar alohida-alohida tashabbuslar emas, balki bir-birini to‘ldiruvchi, yagona maqsad sari yo‘naltirilgan yaxlit taraqqiyot tizimidir. Ularning har biri inson manfaati, barqaror rivojlanish va Yangi O‘zbekistonning kelajak qiyofasini barpo etishdek ulug‘ maqsadga xizmat qiladi.

O‘zLiDeP uchun ham iqtisodiy erkinlik, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, xususiy sektor uchun imkoniyatlarni kengaytirish va aholi farovonligini oshirish kabi vazifalar alohida ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan, Prezidentimiz nutqida aytilgan marralar partiyamizning iqtisodiy taraqqiyot, tadbirkorlik va inson farovonligiga qaratilgan g‘oyalari bilan hamohangdir.

Prezidentimizning mustaqilligimizning 35 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi mamlakatimiz bosib o‘tgan taraqqiyot yo‘lini chuqur sarhisob qilish bilan birga, Yangi O‘zbekistonning kelgusi rivojlanish yo‘nalishlarini belgilab bergani muhim dasturiy ahamiyatga ega bo‘ldi. Ayni paytda u xalqimizni yangi marralar sari birlashtiradigan, bugungi yutuqlarni yanada mustahkamlab, kelajakka ishonch bilan intilishga undaydigan muhim siyosiy va ma’naviy dastur sifatida ham katta ahamiyat kasb etadi.

O‘tgan o‘ttiz besh yil ozod Vatanimiz uchun tom ma’nodagi uyg‘onish, tiklanish va yuksalish davri bo‘ldi. Bugun esa Yangi O‘zbekiston oldida yanada ulug‘vor marralar va katta mas’uliyatli vazifalar turibdi. Belgilangan ustuvor yo‘nalishlar, amalga oshirilayotgan islohotlar va ko‘zlangan yuksak maqsadlarning barchasi, avvalo, inson manfaati va xalq farovonligini ta’minlashga qaratilgan. Zero, har qanday taraqqiyotning haqiqiy mezoni – inson qadri, uning munosib hayoti va ertangi kunga mustahkam ishonchidir. Ana shu ezgu maqsadlar Yangi O‘zbekistonni yanada qudratli va farovon kelajak sari yetaklaydi.

Aktam HAITOV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi O‘zLiDeP fraksiyasi rahbari.

Aks sado

HAMJIHAT XALQIMIZNING MUHTASHAM BAYRAMI

Mustaqillik xalqimizning jipsligi va hamjihatligini yanada oshiradigan eng ulug‘, eng aziz bayramga aylanganiga kechagi tantanalarda yana bir bor guvoh bo‘ldik. Bayram dasturidagi ulug‘vor va jo‘shqin chiqishlar g‘urur va iftixorni oshirdi. Yangi Toshkent hududida qad rostlagan muhtasham maydonda yangragan tarixiy fikr va yangi tashabbuslar xalqimiz kuch-qudrati, bunyodkorlik salohiyatining hayotiy namoyoni bo‘ldi.



Davlatimiz rahbarining mustaqilligimizning 35 yillik ayyomidagi nutqi bayram tabrigigina emas, yaqin yillar uchun hayotiy dastur bo‘ldi. Nutqda odamlarning roziligi, kuchli ijtimoiy himoya va inson qadri eng oliy o‘ringa qo‘yildi. Bu O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasining bosh maqsadi bo‘lgan ijtimoiy himoya va barqarorlik, tenglik tamoyillari bugun mamlakatimizda davlat siyosatining bosh mezonlaridan biriga aylanganini yana bir bor qat’iy isbotladi.

Eng muhimi, kelgusi o‘n yillikda xalqimiz hayotini tubdan yaxshilaydigan 7 ta milliy dastur e’lon qilindi. Ushbu dasturlar partiyamiz elektorati va g‘oyalariga ayni muvofiq keladi.

Birinchidan, xalqimizning sog‘lom bo‘lishi va tibbiy sug‘urtani har bir xonadonga kiritish dasturi partiyamiz yillar davomida kurashib kelayotgan “har bir inson uchun sifatli va bepul tibbiyot” tamoyilini hayotimizga izchil olib kiradi.

Ikkinchidan, mahallani jamiyat taraqqiyotining asosiy buyurtmachisiga aylantirish tashabbusi mahalliy byudjet va loyihalarni yuqoridan emas, aynan oddiy odamlar, ehtiyojmand oilalarning ehtiyojlaridan kelib chiqib taqsimlash imkonini beradi. Bu biz himoya qilayotgan ijtimoiy tenglik, shuningdek, davlatning xalqimiz oldidagi mas’uliyatini yanada oshirish g‘oyalari ro‘yobining asl ifodasi bo‘ladi.

Davlatimiz rahbari 2030-yilgacha yalpi ichki mahsulot hajmini 300 milliard dollarga yetkazish, aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadni 10 ming dollardan oshirish, sanoatda 2 millionta yuqori daromadli ish o‘rni yaratish vazifasini qo‘ydi.

Bu raqamlar ortida yuz minglab oilalarning farovonligi, yoshlarimizning munosib ish bilan ta’minlanishi turibdi. Iqtisodiy o‘sish bilan birga ijtimoiy uy-joylar qurilishi va ijtimoiy xizmatlar sifatining oshirilishi Xalq demokratik partiyasi a’zolari va xayrixohlari faol qo‘llab-quvvatlaydigan katta qadamdir.

“Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yarataylik!”, degan ezgu g‘oya atrofida yurtdoshlarimiz, xalqimiz jips ekan, ham iqtisodiy, ham ijtimoiy, kerak bo‘lsa, siyosiy jihatdan ham ertaga, albatta, yanada qudratliroq bo‘lamiz. Parlamentdagi va mahalliy Kengashlardagi deputatlarimiz, faollar va fidoyilarimiz bilan birga xalqimiz manfaatlarini himoyalash yo‘lida sidqidildan xizmat qilishga tayyormiz.

Ulug‘bek INOYATOV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi O‘zbekiston XDP fraksiyasi rahbari.

Pokistonning “World Tribune Pakistan” nashrida Samarqand shahrida o‘tkaziladigan Parlamentlararo Ittifoq Yosh parlament a’zolarining XII global konferensiyasiga bag‘ishlangan maqola e’lon qilindi.

www.xs.uz /xalqsuzi.uz @xs_uz

Xalq so‘zi
2026-yil 30-avgust

Agrar sohadagi islohotlar:

OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI VA MILLIY SUVERENITET POYDEVORI

1 Ushbu tarixiy davrda mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy hayoti tubdan o‘zgardi. Bu o‘zgarishlar, ayniqsa, Vatanimizning iqtisodiy ustuni – millionlab yurtdoshlarimizning tirikchilik hamda mehnat manbai bo‘lgan qishloq xo‘jaligi, agrar sohada ko‘zga yaqqol tashlanadi. Bugungi kunda mamlakatimiz qishloq xo‘jaligi o‘zining tubdan isloh qilingan yangi qiyofasi, yuqori texnologik imkoniyatlari hamda jahon bozoridagi mustahkam o‘rni bilan faxrlanishga to‘la haqli.

Albatta, ushbu yutuqlarga o‘z-o‘zidan erishilgani yo‘q. Bugungi farovonlik va to‘kin-sochinlik ortida og‘ir, mashaqqatli tarixiy yo‘l, tizimli inqirozlardan chiqish hamda davlatimiz rahbarining qat’iy siyosiy irodasi turibdi. Bosib o‘tilgan ushbu 35 yillik tarixiy yo‘lni to‘liq anglash uchun istiqlol arafasidagi va undan keyingi davrlarga tizimli nazar tashlash kifoya.

So‘nggi o‘n yillikda Prezidentimiz tomonidan qishloq xo‘jaligida tub burilish amalga oshirildi. Avvalo, paxta hamda g‘alla bo‘yicha davlat buyurtmasidan voz kechildi. Yer maydonlari bozor tamoyillari asosida diversifikatsiya qilindi. Ekin maydonlarining sezilarli qismi meva-sabzavot, poliz va ozuqa ekinlari uchun ajratildi. Mamlakat kafolatlangan g‘alla mustaqilligiga erishdi. Natijada O‘zbekiston qisqa fursatda xomashyo yetkazib beruvchi agrar mamlakatdan markazlashtirilgan va zamonaviy agrosanoat majmuasiga ega davlatga aylandi.

Klaster tizimi – qishloq xo‘jaligining yangi lokomotivi

Agrar sohadagi eng katta institutsional islohot, bu – klaster tizimining joriy etilishi. Ilgari fermer yetishtirgan mahsulotini past narxda xomashyo sifatida sotgan bo‘lsa, bugungi kunda klasterlar orqali “daladan rastagacha” bo‘lgan to‘liq qayta ishlash zanjiri yaratildi. To‘qimachilik va meva-sabzavotchilik klasterlari xomashyoni tayyor, yuqori qo‘shilgan qiymatga ega mahsulotga aylantirmoqda. Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti geografik jihatdan kengayib, dunyoning 100 dan ortiq mamlakatlariga yetkazib berilmoqda va yillik eksport hajmi milliardlab dollarni tashkil etmoqda. Klasterlar qishloq xo‘jaligiga zamonaviy xorijiy texnologiyalar va xususiy kapitalni olib kirdi.

Global iqlim o‘zgarishi, Orolbo‘yidagi ekologik vaziyat hamda



Markaziy Osiyoda suv tanqisligi ortib borayotgan sharoitda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash suv resurslaridan foydalanish bilan bevosita bog‘liq.

Shu ma’noda, mamlakatimizda so‘nggi yillarda suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Yuz minglab gektar ekin maydonlariga tomchilatib va yomg‘irlatib sug‘orish tizimlari o‘rnatildi. Minglab kilometrli sug‘orish tarmoqlari betonlanib, suv isrofi keskin qisqartirildi. “Smart-agro” hamda JIS texnologiyalari orqali suv va yer resurslarining hisobi aniq yuritilyapti. Bu chora-tadbirlar hatto eng suv tanqis kelgan yillarda ham hosildorlikni saqlab qolish va aholini oziq-ovqat bilan uzilishlarsiz ta’minlash imkonini berayotir.

Oziq-ovqat xavfsizligi nafaqat mahsulot mo‘l-ko‘lligi, balki aholining unga ega bo‘lish moliyaviy imkoniyati hamdir. So‘nggi yillarda qishloq joylarda “Bir mahalla – bir mahsulot” tamoyili asosida tomorqa xo‘jaliklarini rivojlantirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Yuz minglab gektar qisqartirilgan paxta maydonlari yoshlar hamda kambag‘al oilalarga dehqonchilik qilish uchun bo‘lib berildi. Bu orqali yuz minglab doimiy va mavsumiy ish o‘rinlari yaratildi. Ichki bozorda narxlar barqarorligi ta’minlandi. Qishloq aholisining real daromadlari keskin oshdi.

Global xatarlarga qarshi muhim strategiya

Yaqin Sharqdagi geosiyosiy inqirozlar, global logistika zanjirlaridagi uzilishlar va jahonda oziq-ovqat narxlarining qimmatlashishi fonida O‘zbekiston tanlagan agrar siyosat o‘zining qanchalik to‘g‘ri ekanini isbotladi. Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg‘armasi (XVJ) hamda Shanxay hamkorlik tashkiloti (ShHT) kabi nufuzli tashkilotlar e’tirof etganidek, O‘zbekiston Markaziy Osiyoda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlovchi markaziy agrologistik xabga aylanmoqda.

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasida qishloq xo‘jaligida mehnat unumdorligini 2 baravar oshirish, eksportni 10 mlrd. dollarga yetkazish va sohani to‘liq raqamlashtirish kabi strategik maqsadlar belgilangani hali bu yo‘nalishdagi yutuqlarimiz yanada yuqorilashidan dalolat. Demak, qishloq xo‘jaligidagi islohotlar faqatgina iqtisodiy soha emas, balki milliy xavfsizlik hamda xalq farovonligining mustahkam ustuni bo‘lib qoladi.

Dehqon-u fermerlarimizning halol mehnati, davlatimizning uzoqni ko‘zlagan oqilona siyosati evaziga bugun yurtimiz dasturxoni to‘kin, bozorlarimiz arzon va arzigulikdir. Mustaqillik bergan eng buyuk ne’matlardan biri ham aynan mana shu – o‘z rizq-ro‘zimizga o‘zimiz egalik qilayotganimiz va kelajakka ishonch bilan qarayotganimiz.

Sohada inqilobiy o‘zgarishlar

Agrar tarmoq rivoji haqida gap ketganda, ayrim jihatlarga to‘xtalib o‘tish joiz. Davlatimiz rahbari o‘z vazifasiga kirishganidan so‘ng mamlakatimiz qishloq xo‘jaligida

> *“O‘zbekiston – 2030” strategiyasida qishloq xo‘jaligida mehnat unumdorligini 2 baravar oshirish, eksportni 10 mlrd. dollarga yetkazish va sohani to‘liq raqamlashtirish kabi strategik maqsadlar belgilangani hali bu yo‘nalishdagi yutuqlarimiz yanada yuqorilashidan dalolat. Demak, qishloq xo‘jaligidagi islohotlar faqatgina iqtisodiy soha emas, balki milliy xavfsizlik hamda xalq farovonligining mustahkam ustuni bo‘lib qoladi.*

yangi tarixiy davr boshlandi. Sohaga bozor iqtisodiyoti tamoyillari joriy qilina boshlandi.

2020-yildan boshlab O‘zbekiston tarixida ilk bor paxta va g‘alla bo‘yicha davlat buyurtmasi – rejasi to‘liq bekor qilindi. Fermerlarga yerlardan erkin foydalanish, mahsulotlarni o‘zlari xohlagan xaridorlarga bozor bahosida sotish huquqi berildi. G‘alla yetishtiruvchi dehqonlar uchun birja savdolari tizimi joriy etildi. Bu bug‘doy narxining bozorda shakllanishini ta’minlab, dehqonlarning daromadini bir necha barobar oshirdi.

Prezidentimizning qat’iy siyosiy irodasi tufayli O‘zbekistonda tizimli ravishda bolalar va majburiy mehnatdan foydalanishga butunlay chek qo‘yildi. Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) va “Cotton Campaign” koalitsiyasi O‘zbekistonda majburiy mehnat to‘liq tugatilganini rasman tan oldi va o‘zbek paxtasiga nisbatan joriy etilgan global boykotni bekor qildi. Jahonning eng nufuzli brendlari va savdo tarmoqlari o‘zbek to‘qimachilik mahsulotlarini cheklovlarsiz xarid qila boshladi.

O‘zbekiston qishloq xo‘jaligida mutlaqo yangi iqtisodiy tizim – klaster joriy etildi. U xomashyo yetishtirish, chuqur qayta ishlash va tayyor mahsulot sifatida sotish zanjirini birlashtiradi. Bugungi kunda respublikada paxta maydonlarining 100 foizi klasterlar orqali boshqariladi. O‘zbekiston paxta eksport qiluvchi mamlakatdan, tayyor kalava ip, gazlama va kiyim-kechak sotuvchi davlatga aylandi. Ichki ishlab chiqarish quvvatlari tolani 100 foiz qayta ishlash darajasiga yetdi.

Meva-sabzavot va chorvachilik klasterlari aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash, eksport hajmini oshirish va eksportbop mahsulotlar sifatini xalqaro standartlarga yetkazishda muhim motor vazifasini o‘ynadi. Qishloq xo‘jaligiga zamonaviy agrotexnologiyalar, “aqlli qishloq xo‘jaligi” (smart agriculture) tizimlari, dronlar va boshqa raqamli yechimlar kirib kelmoqda.

Zamonaviy issiqxonalar qurilishi meva-sabzavotlarni yil davomida yetishtirish imkoniyatini yaratdi. Xomashyoni qayta ishlash, qadoqlash, saqlash va logistika tizimini takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu esa mahsulotlarning eksport salohiyatini oshirib, ularning jahon bozorlarida raqobatbardoshligini ta’minlamoqda.

Global iqlim o‘zgarishi va Markaziy Osiyodagi suv taqchilligi muammosi suvdan foydalanish tizimini tubdan isloh qilishni taqozo etdi. Oxirgi o‘n yilda O‘zbekiston bu borada mintaqada eng ilg‘or va faol pozitsiyani egalladi.

Zamonaviy qishloq xo‘jaligini raqamli texnologiyalarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Fermerlar bilan ishlash, subsidiyalar ajratish, yer xaritalari va ekinlar monitoringi raqamli tizimga o‘tkazildi. Yerlarning sho‘rlanishi, ekinlarning rivojlanishi va suv ta’minoti holati bo‘yicha nazorat kosmik suratlar va raqamli tahlillar asosida olib borilmoqda. Prezidentimizning agrar siyosatida ijtimoiy adolat va aholi farovonligi bosh mezon sifatida belgilandi. Ushbu yo‘nalishda amalga oshirilgan “ijtimoiy yer islohoti” millionlab oilalarga yangi hayot bag‘ishladi.

Birlamchi maqsad va ustuvor vazifalar

So‘nggi yillarda global iqlim o‘zgarishlari, tabiiy ofatlar, yer va suv resurslari taqchilligi qishloq xo‘jaligi sohasida ham jiddiy muammolarni keltirib chiqarmoqda. Ana shunday murakkab sharoitga qaramasdan 2025-yilda paxta, g‘alla va meva-sabzavot yetishtirish bo‘yicha yangi navlarni ekish, zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish hisobiga yuqori hosildorlikka erishildi.

Uch mingdan ziyod mirishkor fermerlarimiz paxtachilikda hosildorlikni o‘rtacha 50 – 60 sentnerdan, ularning 1,5 ming nafari esa 70 sentnerdan oshirgani, g‘allachilikda esa 3,5 mingdan ortiq tajribali fermerlarimiz o‘rtacha 100 sentnerdan hosil olgani, hech shubhasiz, ushbu tarmoqlar rivojida yangi davr boshlanayotganidan dalolat beradi.

Yana bir e’tiborga molik jihat shundan iboratki, qishloq xo‘jaligida eksport salohiyatimiz ortib bormoqda. Birgina 2025-yilning o‘zida meva-sabzavotlarimiz yetkazib berilgan davlatlar soni esa 18 taga ko‘payib, 83 taga yetdi. O‘zbekiston 2030-yilga qadar oziq-ovqat mahsulotlari eksportini 10 mlrd. dollarga yetkazish, eksport geografiyasini yana 100 ta davlatga kengaytirishni maqsad qilgan. Yurtimizda 9 mln. tonna don, 3 mln. tonnadan ortiq paxta, 16 mln. tonnadan ziyod sabzavot va poliz, 5 mln. tonna meva va uzum, 4 mln. tonna kartoshka, 15 mln. tonnadan ko‘p go‘sht va sut, 30 ming tonna pilla yetishtirildi.

Albatta, bunday ulkan yutuqlarga erishishda keyingi yillarda qishloq xo‘jaligi rivojiga berilayotgan yuksak e’tibor, tarmoqda tub tarkibiy o‘zgarishlar amalga oshirilib, ishlab chiqarish munosabatlari zamon talablari asosida yo‘lga qo‘yilayotgani hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgani barchamizga yaxshi ma’lum.

Qishloq xo‘jaligining taqdiri va kelajagi – butun mamlakatimizning taqdiri va kelajagi. Shu ma’noda, Yurtboshimiz rahbarligida agrar soha taraqqiyotiga katta e’tibor qaratilmoqda. Zero, bu oziq-ovqat xavfsizligining muhim kafolati, desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Narzullo OBLOMURODOV,
Toshkent davlat agrar universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

DUNYO HAFTA ICHIDA

Qurultoy saylovi muvaffaqiyatli o‘tdi

Turkiya Prezidenti Rejep Tayyip Erdog‘an Qozog‘iston Prezidenti Qosim-Jomart Toqayevni bir palatali Qurultoy deputatlarining ilk saylovi muvaffaqiyatli o‘tkazilgani bilan tabrikladi.

Bu haqda Aqorda matbuot xizmati ma’lum qildi.

Turkiya yetakchisi mazkur tarixiy voqea Qozog‘istonning ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yanada rivojlanishiga xizmat qiladi, deb hisoblaydi. Shu munosabat bilan u parlamentlararo hamkorlikni jadallashtirishni taklif qildi. Qosim-Jomart Toqayev samimiy tilaklar, shuningdek, xalqaro tashkilotlar tarkibidagi turkiyalik kuzatuvchilar missiyasining faol ishtiroki uchun Turkiya yetakchisiga minnatdorlik bildirdi.

U amalga oshirilayotgan ko‘lamli islohotlar ilg‘or, zamonaviy va adolatli Qozog‘istonni barpo etishga qaratilganini urg‘uladi.

Kambag‘allik darajasi pasaymoqda

Tojikistonda kambag‘allik darajasi 1990-yillardagi 83 foizdan 2025-yilda 19 foizgacha pasaydi.

Bu haqda Bosh vazirning birinchi o‘rinbosari Hokim Holiqzoda “Tojikiston va mustaqillikning 35 yili: tinchlikni saqlash tajribasi, ko‘p vektorli siyosat va barqaror rivojlanish” mavzuidagi xalqaro konferensiyada ma’lum qildi.

Uning ta’kidlashicha, Tojikiston mustaqil davlatchilikni shakllantirish yo‘lidan o‘tib, barqaror va taraqqiy etayotgan davlatga aylandi. Mamlakat shu davr mobaynida sezilarli ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga erishdi. Kambag‘allikni qisqartirish esa Tojikistonning mustaqillik davridagi eng muhim ijtimoiy yutuqlaridan biri bo‘ldi.

Mamlakat Statistika agentligi ma’lumotlariga ko‘ra, 2026-yil iyun oyida o‘rtacha nominal oylik ish haqi 3804,63 somoni (411 dollar)ni tashkil etgan. Bu 2025-yil iyun oydagiga nisbatan 21,3 foiz ko‘p.

Tinch okeanida eng yuqori harorat qayd etildi

“Bloomberg” muxbirining xabar berishicha, 22-avgust kuni Tinch okeani yuzasining o‘rtacha harorati 21,1 daraja Selsiyga yetdi. Bu – 1979-yilda sun’iy yo‘ldosh monitoringi boshlanganidan beri qayd etilgan eng yuqori ko‘rsatkichdir.

Yerni masofadan zondlash va xaritalash bo‘yicha “Copernicus” xizmati mutaxassislari rekordni qayd etish vaqtiga ham e’tibor qaratdi. Odatda, Tinch okeanidagi eng yuqori harorat mart-aprel oylarida, Janubiy yarimsharda yoz tugaganidan keyin kuzatiladi. Bu yil esa okean suvi harorati deyarli har kuni yangi rekordni o‘rnatmoqda.

Mutaxassislar buni Tinch okeanida issiqlikning barqaror ravishda to‘planib borayotganining belgisi sifatida baholadi. “Bu rekord Tinch okeaniga bosim ortib borayotganining yana bir belgisidir. Okean harorati ko‘tarilishi bilan dengiz ekotizimlari va qirg‘oqbo‘yi jamoalari uchun xavf ortadi”, dedi Yevropa O‘rta masofali ob-havo prognozlari markazining strategik rejalashtirish direktori Samanta Byordjess.

Yevropada kunlar isib ketdi

“The Guardian” nashrida yozishlaricha, joriy yil yozida Yevropada kuzatilgan ketma-ket to‘rtta rekord darajadagi jazirama to‘lqini sabab kamida 35 ming kishi vafot etdi.

Yakuniy raqam bundan ancha yuqori bo‘lishi mumkin. Avgust oyidagi o‘limlar hozircha to‘liq hisoblanmagan. Germaniya, Fransiya va Ispaniyaning o‘zida jazirama bilan bog‘liq o‘limlar 25 mingdan oshgan. Germaniyada 6-aprel – 9-avgust oralig‘ida issiq havo sabab taxminan 14 ming kishi vafot etgani ma’lum qilindi.

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotiga ko‘ra, Yevropada issiq havo bilan bog‘liq o‘limlar so‘nggi 20-yil ichida 30 foizdan ko‘proqqa oshgan. Tashkilot iqlim o‘zgarishi va aholining qarib borishi sabab bu ko‘rsatkich kelgusida yanada oshishi mumkinligini bildirgan.

Internet xabarlari asosida
Sharofiddin TO‘LAGANOV
(“Xalq so‘zi”) tayyorladi.

Yangiliklar, xabarlar, tafsilotlar

ESDALIK TANGALARI

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki mamlakatimiz mustaqilligining 35 yilligiga bag‘ishlangan uchta esdalik tangadan iborat kolleksiyani muomalaga chiqardi.



Tangalar O‘zbekistonning milliy davlatchiligi, tarixiy merosi, milliy qadriyatlari va zamonaviy taraqqiyot g‘oyalarini aks ettiradi.

Birinchi tangada Mustaqillik monumenti va Davlat bayrog‘i, ikkinchisida O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi va Davlat gerbi, uchinchisida esa “35” raqami hamda Davlat madhiyasidan “Olamni mahliyo aylagan diyor!” satri tasvirlangan.

Tangalar 999,9 asillikdagi oltin va kumushdan zarb etilgan. Har bir tanganing og‘irligi 31,1 gramm, nominal qiymati esa 100 ming so‘m. Tangalar 27-avgustdan boshlab tijorat banklari filiallarida kolleksiya to‘plami va alohida holda sotuvga chiqarildi.

QO‘SHIMCHA QATNOVLAR YO‘LGA QO‘YILADI

Istiqlol bayrami kunlarida aholining mamlakat bo‘ylab sayohat qilishi uchun temir yo‘l, avtomobil va havo transportida qo‘shimcha qatnovlar tashkil etiladi.



Toshkent – Xiva – Toshkent, Toshkent – Qo‘ng‘irot – Toshkent, Toshkent – Shovot – Toshkent, Toshkent – Termiz – Toshkent va Toshkent – Sariosiyo – Toshkent yo‘nalishlaridagi poyezdlarga 4 tagacha qo‘shimcha vagon ulanadi.

Qo‘shimcha qatnovlar bayramdan ikki kun oldin boshlanib, bayramdan keyingi ikki kun davom etadi. Viloyatlararo yo‘nalishlarda qo‘shimcha avtobus qatnovlari yo‘lga qo‘yiladi. Toshkentdagi Janubiy temir yo‘l vokzali hududida viloyatlararo avtobuslar uchun zaxira to‘xtash joyi ajratiladi.

Bayramdan kamida ikki kun oldin Toshkent – Urganch, Toshkent – Nukus, Toshkent – Buxoro va Toshkent – Termiz yo‘nalishlarida qo‘shimcha aviareyslar amalga oshiriladi.

“Xalq so‘zi”.

Buxoro davlat universitetida Yusuf Qorabog‘iy nomidagi Ozarbayjon madaniyat markazi faoliyati yo‘lga qo‘yiladi.

Xalq so‘zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O‘tkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr indeksi – 429. Buyurtma G-542. 23 207 nusxada bosildi. Hajmi – 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma’lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e’lonlar 71-259-74-55.

ISSN 2010-8788

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas’ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko‘chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir N. Ostonov.
Musahhih S. Islomov.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko’chasi, 41. O‘zA yakuni – 00.30 Topshirildi – 00.40 1 2 3 4 5 6